

O'ZBEK TILIDA FE'L KESIM VA UNING IFODALANISHI.

Bozorboyeva Shaxrizoda Ilhomjon qizi

Samarqand Davlat Unversiteti Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Qo'chqorov Javlon Suyundik o'g'li

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kesm turlari. Fe'l kesm va uning gapdagi vazifasi, ot kesmdan farqli xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *fe'l kesim, ot kesim, modal ma'noli fe'llar, predikativlik, sodda fe'l.*

Kesim — gapning bosh bo'laklaridan biri . Ega bilan ifodalangan shaxs, predmet va xodisaning umumiy belgisini bildiradi. Kesim gapni uyushtiruvchi markaz bo'lib, predikativlikning belgisini ko'rsatadi. Ikki tarkibli gapda egaga tobe bo'ladi; o'ziga bog'lanib kelgan so'zlarga nisbatan esa hokim hisoblanadi. Kesim barcha mustaqil so'z turkumlari bilan ifodalanadi. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra, fe'l va ot Kesimlarga bo'linadi. Fe'l kesim sof fel va ba'zan ravishdosh bilan ifodalanadi. Fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish va taqlid so'z) bilan, shuningdek, fe'lning harakati nomi shakli bilan ifodalangan kesim ot kesim deyiladi.

Fe'l-kesim

fe'l yoki uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadi, fe'l-kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: *sodda fe'l-kesm, murakkab fe'l-kesim* Sodda fe'l- kesimlar sof fe'l shakllari bilan ifodalanadi: Maktabni tugatdik. Murakkab fe'l-kesim ikki so'zdan iborat bo'ladi: xatni yoza oladi. Mevalar pisha boshladi. Bu fikrni hammaning oldida aytdi-qo'ydi. **Ot-kesim** fe'l bo'lmagan so'zning kesim vazifasida kelishidir. Ot-kesim ham sodda va murakkabga ajratiladi. Bir so'z bilan ifodalangan kesim sodda ot-kesim deyiladi: *Yoshlik-inson umrining oltin davri*. Murakkab ot kesim quyidagicha tuziladi: a) ot, sifat, son, olmosh, ravish hamda bo'lmoq fe'li yoki to'liqsiz fe'ldan iborat bo'ladi: Mehnatning noni shirin bo'ladi. Uning maqsadi shu edi. Qoidaga binoan sodda fe'l kesimlar bir tarkibli, tarkibli fe'l kesimlar esa ikki tarkibli deb ataladi. Hozirgi zamon o'zbek tilida fe'l bilan ifodalangan kesimlar fe'l kesim hisoblanadi. Ot, sifat, olmosh va sifatdosh bilan ifodalangan kesimlar esa ot kesim deb ataladi. Fe'l kesimlar ikkiga bo'linadi: sodda fe'l kesim va tarkibli fe'l kesim. Ot kesimlar faqat tarkibli bo'lishi mumkin. Yuqorida bayon

qilinganlardan ko‘rinib turibdiki, bunda kesim tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Umuman olganda kesim egaga bog‘liq bo‘lgan tushunchani anglatadi. Gapning bosh bo‘laklarini o‘rganishga bo‘lgan bunday yondashuv tilshunoslarining bunday qarashlari bir qancha qiyinchiliklarni tug‘diradi. Kesimni subyekt ya‘ni agens valentligini to‘ldiruvchi va u bilan moslashuv munosabatida bo‘luvchi sintaktik shakl, ya‘ni egasiz tasavvur qilish qiyin. Negaki, ega vaziyati kesimga qarab belgilanadi. Shuning uchun ham gap tarkibida har qanday so‘z ham ega sanalavermaydi. Faqat kesim bilan tobe munosabatda bo‘lgan sintaktik shaklgina ega vaziyatida kela oladi.

Kesim shakli orqali ega haqidagi axborot oldindan bilinib turadi. Uning bosh bo‘laklardan biri bo‘lishiga sabab shuki, u gapda ega bilan aloqaga kirishib, gapning qurilishi va axborot berish asosini tashkil etadi. Ega ham tol tizimidagi birlik sifatida shakl va mazmun qarama-qarshiligi hamda birligidan tashkil topgan bir butunlikdir.

Yuqoridagi bu joyni ishlatish uchun quyidagi manbadan olingan mulohazalarni ma‘lumot uchun berib turish joizdir. Yani Ivanova I.P., Burlakova V.V., Pocheptsov G.G.larning “Theoretical grammar of modern English” kitobida shunday satorlarni o‘qish mumkin: “Predikatning kategoriyali mohiyati uning predmet bilan munosabati bilan belgilanadi, uning tashuvchisi Predikatning kategoriyali vazifasi predikatning bunday xususiyatini ifodalashda yotadi. Ko‘rinib turibdiki, ega va predmet bir-biridan ajralmas va o‘zaro bog‘langan sintaktik hodisalardir. Shuningdek, an‘anaviy grammatikada bo‘linuvchi va bo‘linmaydigan elementlar hisobga olinmaydi. Sintaktik birliklarni o‘rganishda aniq lisoniy usullar asosida ish yuritishni taklif qilamiz. Ushbu tahlil usuli an‘anaviy grammatikada qo‘llaniladigan sintaktik, morfologik, leksik hamda boshqa shu kabi tahlil usullaridan o‘zining ayrim xususiyati bilan farqlanadi. Sodda fe‘l kesimlar buyruq, istak-xohish va shart mayllardagi fe‘llar bilan ifodalanadi, shuningdek, maxsus tarzda qo‘llanishdagi infinitivlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Buyruq-istak maylidagi fe‘l bilan ifodalangan hozirgi ha o‘tgan zamon sodda fe‘l-kesim og‘zaki nutqdagi istalmagan yoki kutilmagan harakatni ifodalashi uchun buyruq mayli va kelasi zamon shakldagi fe‘llar bilan qo‘llaniladi.

Fe‘l: - Kitob ochiq **yotardi**.

Sifat: - Toshkent **go‘zal**.

Ot: - Temur davlatining markazi **Samarqand edi**.

Ravish : - Vatan sarhatlari **poyonsiz**.

Yordamchi fe‘l vazifasidagi fe‘llar quyidagilardan iboratdir:

1. Vazifali fe'llar: Bular harakatning boshlanishini, davom etishini va tugashini anglatadi va tashlamoq, tugamoq, boshlamoq, davom etmoq ma'nolarini anglatuvchi infinitivlar bilan birga qo'llaniladi.

2. Modal ma'noli fe'llar. Bunday fe'llar modallikning turli xil ko'rinishini aks ettiradi. Jumladan, mumkinlik, mumkin emaslik, imkoniyat, istak, intilish, qaror qilish, fikr jarayoni va ruhiy kechinmalarni ifodalaydi.

Kesim va uning ifodalanishi. Ega anglatgan predmetning predikativ belgisini ifodalaydigan, ega haqidagi hukmni bildiradigan bosh bo'lak kesim deyiladi.

Kesim o'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni grammatik jihatdan shakllantiradigan bosh bo'lak hisoblanadi.

Kesim ifoda materialiga ko'ra (qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra) ikki turga ajratiladi: 1) fe'l kesim; 2) ot kesim.

Fe'l kesim. Turli fe'l shakllari bilan ifodalanadigan kesim fe'l kesim deb yuritiladi: Yo'l chetida zarg'aldoqlar sayraydi. (P.Q.). O'rik qiyg' os gulluganda, birdan havo sovib, laylakqor yog'ib berdi. (P.Q.).

Fe'l kesim ba'zan frazeologik ibora bilan ham ifodalanadi: Tog' etagida qishloqning mirzateraklari elas-elas ko'zga tashlanadi. (P.Q.).

Ot kesim. Fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va b.) bilan, shuningdek, fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalanadigan kesim ot kesim deyiladi.

Kesimning ot bilan ifodalanishi. Ot kesim vazifasida ko'pincha bosh kelishikdagi ot, ba'zan esa o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishiklardagi ot yoki ko'makchi bilan qo'llangan ot kelishi mumkin: Yoshning hurmati - qarz, qarining hurmati – farz. (Maqol).

So'z ko'rki - maqol. (Maqol). O'sha kuni Norboy ota dalada edi. (Pirimqul Qodirov). Safaviylar ham o'zimizning turkiy ulusdan. (Pirimqul Qodirov)

Ot bilan ifodalangan kesim nafaqat bosh kelishik shaklida, ba'zan jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklar shaklida bo'lishi mumkin, hatto ko'makchi orqali shakllangan bo'lishi mumkin. Masalan: Ilmu hunar erga emas, elga. (Maqol). Haqiqat kuchda emas, kuch haqiqatda. (V.Katayev). Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun. (Maqol).

Kesimning sifat bilan ifodalanishi: O'rmon ichi sersoya, salqin. (P.Qodirov)

Uning bo'yi baland edi. (P.Qodirov)

Kesimning son bilan ifodalanishi:

Besh karra besh-yigirma besh. Qayiq kattagina, eshkagi to'rtta edi. (P.Qodirov) So'zimiz, va'damiz, ahdimiz bitta, do'stlikda yaratgan baxtimiz. bitta. (Maqol).

Kesimning ot bilan ifodalanishi : Endi navbat sizniki. (P.Qodirov)

Sen uning kimi bo'lasan? (CH.Aytmatov) Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun. (Maqol)

Kesimning harakat nomi bilan ifodalanishi: Bir ko'rgan bilish, ikki ko'rgan tanish. (Maqol)

Kesimning ravish bilan ifodalanishi: Podshoni kuyov qilishga havasmandlar ko'p edi. (P.Qodirov)

Kesimning modal so'z bilan ifodalanishi: Oy tunda kerak, aql kunda kerak. (Maqol) Tengdoshlari ichida undan tez chopadigani, chillak otishda undan ustasi yo'q. (P.Qodirov)

Kesimning undov so'z bilan ifodalanishi:

Ellarni qutqazgan mardlarga balli!

Mardlarni etkizgan yurtlarga balli!

(M.Shayxzoda)

Kesim tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: Sodda kesim va tarkibli kesim.

sodda kesim yakka bir asosli fe'llar bilan ifodalangan kesimlar hamda bog'lamasiz kelgan ot kesimlardir. Sodda kesim ifoda materialiga ko'ra ikki xil: sodda fe'l kesim, sodda ot kesim.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, fe'l kesimning gapdagi o'rne, vazifasi haqidagi fikrlarni aniqlab olindi. Ularning gapdagi ifodalanish o'rnini ham qo'llanilishini ham misollar orqali yoritib o'tilganini ko'rdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. O'zbek tili grammatikasi, 2-tom, Toshkent, 1976, 177-182-b.
2. H. Boltaboyeva. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar, Toshkent, 1969, 8-57-b.
3. <https://muhaz.org/gapni-bolaklarga-ajratish-tamoyillari.html?page=15>
4. <http://nozima4676.zn.uz/sample-page/fel-kesim-va-ot-kesim/>